

YOSHLAR ORASIDA GIYOHVANDLIK VA PSIXOTROP MODDALARNING TARQALISHINING OLDINI OLIISH MASALALARI

Shukurov Shermuxammad

Bojxona instituti magistratura tinglovchisi

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada globallashuv jarayonlari sharoitida psixotrop moddalarning yoshlar orasida keng tarqalishi, uning ijtimoiy, huquqiy va ma'naviy oqibatlari atroflicha yoritildi. Jahon va O'zbekiston miqyosidagi statistik ma'lumotlar asosida giyohvandlik va psixotrop moddalarning yoshlar hayotiga salbiy ta'siri ko'rsatib o'tildi. Ayniqsa, Internet tarmoqlari orqali psixotrop moddalar savdosining avj olishi, sintetik narkotiklar va kuchli ta'sir etuvchi dori vositalarining ommalashib borayotgani muammoni yanada jiddiylashtirayotgani ta'kidlangan.

Kalit so'zlar: globallashuv, giyohvandlik, yoshlar, sintetik narkotiklar, psixotrop moddalar, Internet tarmoqlari, jinoyatchilik, profilaktika, davlat yoshlar siyosati, sog'lom turmush tarzi.

АННОТАЦИЯ

В данной статье всесторонне рассматривается широкое употребление психоактивных веществ среди молодежи в контексте процессов глобализации, а также его социальные, правовые и моральные последствия. На основе глобальных и узбекских статистических данных показано негативное влияние наркотических и психотропных веществ на жизнь молодежи. Было отмечено, что рост продаж психоактивных веществ через интернет-сети, растущая популярность синтетических и сильнодействующих наркотиков еще больше усугубляют проблему.

Ключевые слова: глобализация, наркомания, молодежь, синтетические наркотики, психотропные вещества, интернет-сети, преступность, профилактика, государственная молодежная политика, здоровый образ жизни.

ANNOTATION

This article comprehensively discusses the widespread use of psychoactive substances among young people in the context of globalization processes, its social, legal, and moral consequences. Based on global and Uzbek statistical data, the negative impact of narcotic and psychotropic substances on the lives of young people is shown. It was noted that the increase in the sale of psychoactive substances through Internet networks, the increasing popularity of synthetic drugs and powerful drugs make the problem even more serious.

Keywords: globalization, drug addiction, youth, synthetic drugs, psychotropic medicine, Internet, crime, prevention, state youth policy, health image.

Jahondagi globallashuv jarayonlari dunyo hamjamiyatida fan-texnika taraqqiyoti hamda xalqaro iqtisodiy, siyosiy va gumanitar munosabatlarning rivojlanishi uchun

ko‘plab imkoniyatlar yaratishi bilan bir qatorda, turli xavf-xatarlarni ham keltirib chiqarmoqda.

Yoshlar orasida avj olayotgan illatlardan biri – bu psixotrop va kuchli ta’sir qiluvchi moddalarga ruju qo‘yishdir. Statistik ma’lumotlarga ko‘ra, xozirda dunyoda 300 millionga yaqin odam giyohvandlik illatiga yo‘liqqan. Ularning aksariyat qismini 30 yoshgacha bo‘lgan yoshlar tashkil etmoqda. Giyohvandlik oqibatida har yili 600 mingdan ortiq odam hayotdan erta ko‘z yumadi. Shu bilan birga, jahonda sodir etilayotgan jinoyatlarning 57 foizi psixotrop moddalar iste’molchilari hissasiga to‘g‘ri keladi [1].

O‘zbekiston Respublikasida giyohvandlik va narkojinoyatlarga qarshi kurashish bo‘yicha 2024 —2028-yillarga mo‘ljallangan milliy strategiyaning ustuvor maqsadlariga yerishish, giyohvandlik va uyushgan narkojinoyatchilikka qarshi kurashish faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish orqali aholini, birinchi navbatda, yoshlar salomatligini hamda millat genofondini samarali himoya qilish bo‘yicha kompleks chora-tadbirlarni belgilash maqsadida Prezidentimizning 207-sonli Farmoni qabul qilindi. Ushbu Farmondan ko‘zlangan asosiy maqsad:

- O‘zbekiston aholisining salomatligi va millat genofondiga jiddiy tahdid solayotgan giyohvandlik illatiga qarshi kurashish hamda bunga sabab bo‘layotgan uyushgan narkojinoyatchilikka chek qo‘yishga qaratilgan normativ-huquqiy, tezkor-profilaktik va tashkiliy-tarbiyaviy choralar kompleksini belgilash;

- voyaga yetmaganlar va yoshlarimiz kelajagini giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalardan har tomonlama asrash — barcha darajadagi davlat organlari, tashkilotlari va muassasalarining dolzarb vazifasi ekanini alohida qayd etish hamda ularning bu boradagi mas’uliyatini tubdan oshirish [2].

Xalqlar va millatlar kelajagiga raxna soluvchi ushbu illat yurtimiz yoshlarini ham chetlab o‘tgani yo‘q. Mamlakatimiz aholisining yarmidan ko‘p qismini 30 yoshgacha bo‘lganlar tashkil etadi. Dunyoqarashi endigina shakllanib borayotgan, bor kuch g‘ayratini faqat bilim olishga, izlanishga, hunar o‘rganishga sarflashi kerak bo‘lgan yoshlarni aldov yo‘li bilan ushbu boshi berk ko‘chaga kirituvchi shaxslarning soni kundan-kunga ortib bormoqda.

Ayniqsa, psixotrop moddalarni “savdo”si Internet tarmoqlariga ko‘chishi, uning yanada keng qamrovli “tovar”ga aylanishiga olib keldi. Psixotrop moddalar deganda markaziy asab tizimiga o‘ziga xos ta’sir ko‘rsatadigan, muntazam ravishda iste’mol qilganda ruhan va jismonan qaramlikni yuzaga keltirishi mumkin bo‘lgan, kelib chiqishi tabiiy yoki sintetik kimyoviy moddalar. Bularga giyohvandlik vositalari, psixotrop moddalar, prekursorlar hamda kuchli ta’sir qiluvchi dori vositalari kiradi [3].

Jahon Sog‘liqni Saqlash tashkilotining 2014-yil sentabr oyida taqdim yetilgan statistikasi dunyoda giyohvandlik muammosi xavfini yana bir bor tasdiqlaydi. Oxirgi ma’lumotlarga ko‘ra, sayyoramizning umumiy aholisi 8 milliarddan ortiq bo‘lsa, shundan 210 million kishi giyohvand moddalarni iste’mol qiladi [4].

Voyaga yetmaganlar jamiyatdagi giyohvandlik oldida eng himoyasiz va psixologik nochor bo‘lib qolmoqda. Hayotiy qiyinchiliklar, muammolar va ularning

ko'pchiligida stressli vaziyatlarni yengish uchun hayotiy tajriba va ko'nikmalarning yetishmasligi, ularga individuallikni saqlash va sog'lom turmush tarzini yaratish, otalar va o'qituvchilarning o'zini o'zi jalb qilish, bolaning muammolariga yetarlicha e'tibor bermaslik spirtli ichimliklar va giyohvandlik moddalarini iste'mol qilishning keskin o'sishiga olib keladi. Bundan tashqari, davlatlar, jamiyat institutlari va an'analarning yetarli darajada rivojlanmaganligi, bir qator davlatlar aholisining siyosiy passivligi va huquqiy layoqatsizligi milliy rivojlanishni cheklovchi va milliy xavfsizlikka tahdid soluvchi omillardir.

Bularning barchasi voyaga yetmaganlar o'rtasida demokratik fuqarolikni rivojlantirish va huquqiy savodxonlikni rivojlantirishga qaratilgan ta'limga oid davlat siyosatini ishlab chiqishni taqozo yetadi.

Mamlakatimizda yoshlarga oid davlat siyosati sohasida sezilarli ishlar amalga oshirilmoqda. O'tgan davr mobaynida yoshlarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash, ularning huquq va qonuniy manfaatlarini himoya qilish, mamlakatimiz istiqboli uchun mas'uliyatni o'z zimmasiga olishga qodir, tashabbuskor, shijoatli yoshlarni tarbiyalash borasida alohida tizimli ishlar olib borildi. Ularni oliy ta'limga qamrab olish maqsadida Oliy ta'lim muassasalarining soni 200 dan oshirildi. Hozirda ushbu OTMlarda 1,5 millionga yaqin yoshlar tahsil olib kelmoqda. Bu ko'rsatkich o'quvchilarni oliy ta'limdagi qamrovini 38%ga yetganligini ko'rsatadi [5].

Statistik ma'lumotlarga ko'ra, psixotrop va kuchli ta'sir qiluvchi moddalarning noqonuniy muomalasi uchun javobgarlikka tortilgan shaxslar orasida yoshlar soni 74 foizga, shu jumladan, talabalar soni 21 foizga, maktab o'quvchilari soni 6 barobarga oshgan.

Jumladan, 2023-yilda narkojinoyatlar uchun qo'lga olingan 30 yoshgacha bo'lgan shaxslarning 97 nafarini OTMlar talabalari tashkil qilgan [6].

Shu bilan birga, keyingi yillarda psixotrop va kuchli ta'sir etuvchi dori vositalarining O'zbekistonga noqonuniy kirib kelishi holatlari ko'paymoqda. Bojxona organlari tomonidan 2022-yilda 313 ming dona kuchli ta'sir etuvchi va psixotrop moddalar aniqlangan bo'lsa, 2023-yilda ushbu raqam 663 ming donaga yetgan va bir yilda 2 barobarga ortgan. Bu esa, vaziyatni qanchalar jiddiylashib borayotganligini ko'rsatmoqda. Bugungi kunda psixotrop va kuchli ta'sir qiluvchi moddalarning savdosi asosan Internet tarmoqlari orqali amalga oshirilmoqda. Internet makonida giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalar savdosiga ixtisoslashgan 52 ta axborot manbai aniqlangan. Ularning 14 tasi veb-saytlarda, 38 tasi esa telegram messenjeri orqali faoliyat yuritgan. Telegram messenjerida shu mazmunda 38 ta axborot manbai aniqlangan. Ularning umumiy auditoriyasi 119 671 nafar foydalanuvchini tashkil etgan [7].

O'tkazilgan tahlillar natijasiga ko'ra, yoshlarning an'anaviy giyohvandlik vositalaridan ko'ra, yangi turdagi sintetik giyohvandlik vositalari, psixotrop va kuchli ta'sir qiluvchi dorilarning suiste'moliga o'tishining asosiy sabablari quyidagilardir:

1. Yangi turdagi psixofaol moddalarni topishning nisbatan osonligi (jumladan, Internet orqali);

2. Kuchli ta'sir qiluvchi dori vositalarini dorixonalardan topishning imkoni mavjudligi;

3. Interent tarmoqlari orqali psixofaol moddalarning keng reklama qilinayotganligi;

4. Kuchli ta'sir qiluvchi dorilar narxining arzonligi;

5. Kuchli ta'sir qiluvchi dori vositalarini sotish uchun nisbatan yengil jazo belgilanganligi;

6. Kuchli ta'sir qiluvchi dori vositalari iste'molining oqibatlari to'g'risidagi profilaktik tadbirlar sifati talab darajasida emasligi;

7. Ota-onalarning ushbu muammodan bexabarligi va farzandlariga nisbatan bee'tiborligi.

Shu munosabat bilan, har yili fevral oyida ichki ishlar organlari tomonidan "Yoshlar orasida giyohvandlik va psixotrop moddalarning tarqalishiga qarshi kurashish" oyligi o'tkazib kelinmoqda. Mazkur tadbirlarda yoshlar orasida yangi turdagi sintetik giyohvandlik vositalari va "yengil narkotik" sifatida ommalashib borayotgan dori-darmonlarning inson salomatligi bilan bir qatorda, turmush tarziga, kelajagiga, yaqinlariga salbiy ta'siri tushuntirilmoqda.

Ushbu illatning oldini olish uchun avvalo, xastalikning sabab bo'luvchi omillarini bartaraf etish, xususan, aholi bandligini ta'minlash, yoshlarni sportga jalb etish, ularning ma'naviy dunyosini umuminsoniy qadriyatlar va milliy g'urur hissi bilan boyitish ham hayotiy zaruratdir.

Yoshlarni dunyoqarashi endigina shakllanib borayotgan bir paytda, ularni aldov yo'llari bilan giyohvandlik qurboniga aylantirayotganlar oz emas. O'z hamyonini qappaytirish ilinjida og'uni voyaga yetmagan yoshlar orasida tarqatib, uni iste'mol qilishga targ'ib qilayotganiga jim qarab turib bo'lmaydi [8].

Foydalanilgan adabiyotlar

1. <https://news.un.org/ru/story/2024/06/1453651>
2. <https://lex.uz/docs/7818774>
3. Zhilina K.Y. Features of international legal prevention and fight against drug crime, narcotism and drug addiction. // Scientific bulletins. Series Philosophy. Sociology. Right. -2010. -№ 2 (73), Vol. 11. -P.110.
4. https://www.unodc.org/documents/wdr2014/World_Drug_Report_2014_web.pdf
5. <https://www.xabar.uz/talim/ozbekistondagi-202-ta-oliygohda-15-million-tal>
6. <https://uza.uz/>
7. <https://senat.uz/oz/events/post-2988>
8. <https://parliament.gov.uz/oz/news/>